

Xoja Asarlarida Pand-Nasihati Ruhidagi Hikoyatlar Talqini

N

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

yo'nalishi 1-kurs magistranti

nodirasadullayeva471@gmail.com

(97) 7232193

S

a

annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr Buxoro adabiy muhitining vakillaridan biri Poshshoxo'janing axloqiy-ta'limiy, pand-nasihati ruhidagi qarashlari singdirilgan hikoyalari, adolatli, saxovatli, zolim hukmdorlar, dono vazir, boyqushlar, chumchuq va oddiy avom obrazlari orqali tahlil qilingan. Bundan tashqari, ushbu asar orqali bugungi yosh avlod tarbiyasi va ma'naviyatini yuksaltirishda dasturilamal bo'lishi bilan birga ta'lim va tarbiyani uyg'unlikda olib borish zaruriyati kabi masalalar tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: xoja, hikoya, hukmdor, vazir, kampir, daraxt, to'g'riso'z, saxovatli, adolatli, chumchuq,

a

XVI asr o'zbek adabiyoti tarixidan munosib o'rin egallagan "Miftohi ul-adl" ("Adolati kaliti") va "Gulzor" asarlari Abdulloh Sayyid Podshoxo'ja ibn Abdulvahhob Xo'ja qalamiga mansubdir. U "Miftohi ul-adl" va "Gulzor" asarlari orqali o'sha davr ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-ta'limiy mavzularida hikoyatlar keltirib, ushbu asarlar o'zida jamlagan qimmatli tavsiyalari, ibratlari bilan o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Xoja hikoyalari ichida axloqiy-ta'limiy masalalarga bag'ishlangan hikoyalar mavzusi hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Shu o'rinda to'g'rilik haqida keltirilgan hikoyatini (qo'lyozma 66^b – bet) ko'rib o'tsak. Hikoyada keltirilishicha, Sulton Sanjar Moviy degan bir sulton bo'ladi. U o'ziga ayvon qurdirmoqchi bo'lib, unga to'g'ri keladigan ustun topa olmaydilar. Shunda bir kampirning uyida ustunga munosib bir to'g'ri daraxt borligi haqida xabar topishadi. Sulton daraxt evaziga kampirga zarli to'n va tovoqda tilla berib sotib oladi. Ayvon bitgach xaloyiq Sultonning ayvonini tomosha qilishga keladi, o'z daraxti zarlar, oltin bilan bezatilganini ko'rgan kampir "Ey, yig'och, rostliqingdin o'zingni ham meni ham tillapo'sh qilding" – deydi. Va hikoya quyidagi she'riy parcha bilan yakunlanadi:

Har kimki rostlikni qildi o'ziga shior,

Bunyodi ilan har ishi bo'ldi jahonda mahkam.

Gar alifdek rost bo'lsang, bol ichida tut maqom,

Lom alifdek bo'lsang egri bo'l balo ichra mudom.

Hikoyaning asosiy mavzusi to'g'rilik hisoblanadi. Bu yerda Sulton Sanjar Moziyning sifatini ham alohida ta'kidlab o'tsak bo'ladi. U daraxtni topgach, zulm yoki zo'ravonlik bilan emas aksincha to'g'rilik bilan daraxtni kampirdan oladi. U to'g'rilik tarafdori. Ikkinchi tarafdin daraxtning to'g'riligi o'ziga ham egasiga ham manfaat keltirib, kampirni ham o'zini ham tillolarga o'ratadi, daraxt simvoli orqali bu yerda Xoja rostgo'ylik, to'g'riso'zlik g'oyasini ilgari suradi. Bundan

tashqari, ushbu hikoyada kitobat san'ati ham go'zal qo'llangan. Arab alifbosidagi alif va lom-alif harflari orqali inson xarakterini ochib berishda foydalaniladi. Alif harfi to'g'ri va tik bo'lgani uchun Xoja uni to'g'ri va rostgo'y insonlarga qiyos etadi. Lom-alif esa egri chiziqlardan iborat bo'lganligi sababidan yuqoridagi sifatga qarama-qarshi ma'noda qo'llaniladi.

“Miftoh ul-adl” diniy – mistik mazmundagi masallari bilan emas, balki xuddi shu ilg'or g'oyalari bilan sug'orilgan hikoyalari bilan ham qimmatlidir. Masalan, mana bu hikoyani (Zohidov, G'aniyeva, Miftoh ul-adl va Gulzordan hikoyalar, 1962, 14 – b) ko'rib o'tsak. Sulton Mahmud G'aznaviy otlik bir zolim hukmdor va uning Xasan otlik bir vaziri bo'lgan ekan. Bir kun ikkisi ovga chiqadi, yo'lda ikki boyqushning o'zaro quda bo'lishi haqidagi suhbatini eshitib, vaziri yum-yum yig'laydi. Podshoh vaziridan yig'lash sababini so'raganda bu boyqushlar quda bo'lmoqchi va qalin puli evaziga biri boshqasidan o'n ming buzilgan uy so'rayapti, ikkinchisi javoban: “Agar Sulton Mahmud tirik bo'lsa, bir yildan so'ng yuz ming buzilg'on uy berayin” – dedi. Men shu so'z boisidin yig'ladim podshohim deganda, Sulton Mahmud o'zining shu darajada zolimligidan g'amgin bo'ladi va vaziridan nima qilmoqlik mumkinligini so'raydi. Vazir javoban unga adolat birla ish tutmoqlik kerakligini va qilgan zulmlari uchun tovba qilishini aytadi. Shunda Sulton: “Tavba qilsam, Alloh taolo gunohlarimni avf qiladimi?” – deydi. Vazir quyidagicha javob beradi: “Payg'ambarimiz aytibdurlarki, har kishi gunohdin tavba qilsa, gunoh qilmag'ondek bo'lur. Bu suhbatdan so'ng podshoh uyiga qaytib kunduz adolat bilan yurt boshqarsa, kechalari darveshona kiyinib, eshikdan eshik yurib, qaysi uyda tul xotin yo bir miskin bo'lsa, unga ehson qilar ekan.

Ushbu hikoyadan maqsad yurt rahbari adolat, to'g'riso'zlik, saxovat, insof bilan ish yuritishi kerakligi, xalqqa zulm qilmasdan odil bo'lsa, bundan xalqning ko'ngli ravshanlashib, adolat vayrona yurtni ham obod qilib yuborishi haqida aytadi. Bu hikoyatda sulton nihoyatda zulmkor, zolimligidan yurt vayrona ahvolga kelib qolgan. Uning vaziri esa aksincha, juda dono, topqir va so'zamon bo'lib, ikki boyqush hikoyasi bilan shohni zulmkor ekanligini tan olishga majbur qiladi va adolatli shoh bo'lishga o'rgatadi. Boyqushlar hikoyasidan keyin sulton Mahmud o'z qilmishidan iztirob chekib, yurtni vayrona ahvolga tushib qolganidan uyaladi. Hikoya muallifi vazirni sultonga qaram - qarshi qo'yib sultonni tarbiyalaydi. Sulton vaziridan adolatli bo'lish uchun yana nima qilish kerak degan savoliga shu paytgacha qilgan zulmlari uchun tavba qilishni maslahat beradi. So'ziga dalil sifatida hadisni misol keltirib, so'zini dalillaydi.

Xojaning har ikki asarida ham uchrovchi yana bir kuchli mazmunga ega hikoyalardan biri “Chumchuq” hikoyasidir. Ushbu hikoyaning mazmuni quyidagicha: bir kishi qafasda chumchuq asraydi. Bir kuni u chumchuq o'zini ozod qilish evazida egasiga uch pand-nasihat berishini aytadi. Kishi rozi bo'lib, nasihatlarini so'raydi. Shunda chumchuq: “Birinchi o'rinda hech qachon qo'lingdan chiqqan narsaga kuyinma. Va yana mahol so'zni also qabul qilmag'il” – deydi. Shu ikkisini aytgach qush qafasdan chiqarishini so'rab, qafasdan ozod bo'ladi. Erkinlikka chiqqan qush: “Egasiga mening qornimda yigirma la'l bor edi, sen undan mahrum bo'lding” – deydi. Shohni qayg'uga botganini ko'rib, qanday qilib meni bu jismimga buncha la'l sig'ishi mumkin deb ta'kidlaydi. So'ng uchinchi nasihat o'rniga: “Shu daraxt ostida bir ko'zacha tanga borligini aytadi”. Ushbu hikoyatdan maqsad shuki, chumchuqni ozod etgan kishi uch hikmatli so'z – nasihatga ega bo'ladi. Chumchuqning ozod etilishi – uni erkinlikka olib chiqqan bo'lsa, chumchuq egasi qush pandlari orqasidan ham ma'naviy, ham iqtisodiy boyiydi. Bu yerda o'quvchini hikoya kompozitsiyasi o'ziga jalb etadi. Chumchuq dastlabki ikki nasihatini aytib bo'lgach egasini sinaydi, qafasdan ozod bo'lgach asosiy “sovg'a”ni aytadi. “Gulzor” asarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu har bir hikoya mazmuniga mos nazmiy misra(qit'a, g'azal, masnaviy)ni hikoya so'nggida keltirib o'tadi. Ushbu hikoya so'nggida Xoja quyidagi baytlar bilan hikoyasini yakunlaydi.

Ikki ish qo'yimas bani odamda dahr ichra majol:

*Bir – taassuf o‘tkon ishqa, biri - dog‘i amri mahol.
Odam ersang ko‘b taassuf yema o‘tgan ish uchun,
Demagil so‘zni maholu chekmag‘il andin malol.*

Bundan tashqari bu hikoya orqali Xojaning xalq og‘zaki ijodi namunalaridan qay darajada xabardor ekanligi namoyon bo‘ladi. Xalq og‘zaki ijodi namunalaridan ta‘sirlanib bitilgan bu misralar hozirda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa. Xojaning ushbu asarlarida axloq va odob, ta‘lim-tarbiya masalalarini o‘zida aks ettirgan yana boshqa hikoyalari ham mavjudki, ularda muallif birovga xiyonat qilmaslik, g‘iybat so‘zga quloq solmaslik kabi qator g‘oyalarni ilgari suradi.

Xoja qalami ostidagi hikoyalarda ifodalangan axloqiy-ta‘limiy, pandnoma, tarbiyaviy masalalar XVI asr kishisi nuqtayi nazaridan ijobiy qo‘yilgan va to‘g‘ri hal etilgan. Xoja fikrlari goh hikoya qahramoni tilidan, goh asar g‘oyasidan anglashiladi. To‘g‘rilik va mehr-muhabbat ma‘qullangan, xiyonatkorlik va g‘iybat bilan ish tutish qoralangan Xoja hikoyalari hozirgi asrimizda ham katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaxo‘ja N., Adizova I. O‘zbek adabiyoti tarixi XVI-XIX asr birinchi yarmi. – Toshkent: “Noshir”, 2019.
2. Mirzaaxmedova M. Xoja. –Toshkent: “Fan”, 1975.
3. Poshshoxo‘ja “Miftoh ul-adl” va “Gulzor”dan. ЎzSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. – Toshkent.1962.
4. Vohidov R, Eshonqulov H. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: yangi asr, 2006.
5. Xojaning “Miftoh ul-adl” asari № 7796 inventar raqamli qo‘lyozmasi.
6. Zohidov V. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” haqida. –Toshkent, 1961.